

Eryigitova Lobar Qodirovna

CAMU xalqaro tibbiyot universiteti kafedra mudiri, sots.f. f.d. (Phd)

e-mail: e-lobarxoneryigitova@gmail.com

Tel: +998 90 523 70 13

UDK:091.128.132

SOTSIOPERENTOLOGIYADA “YOLG‘IZ KEKSALIK” FENOMENINI O‘RGANISHNING AYRIM NAZARIYALARI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif hozirgi kunda tobora globallashib borayotgan muhim sotsial muammo – yolg‘izlik fenomeni haqida klassik sotsiologiyaning namoyondalarining mavjud nazariyalariga tayangan holda o‘z fikrlarini bayon qiladi.

Kalit so‘zlar: “yolg‘izlik epidemiyasi”, yolg‘izlikning sotsial tasnifi, sotsiogerentologik qarashlarda yolg‘izlik nazariyasi, “ijtimoiy chekinish” nazariyasi.

Эрийгитова Лобар Кадировна

Заведующая кафедрой Международного медицинского университета CAMU,

доктор философии по социологии (PhD)

Э-почта: e-lobarxoneryigitova@gmail.com

Тел: +998 90 523 70 13

АНАЛИЗ ОТДЕЛЬНЫХ ТЕОРИЙ ИЗУЧЕНИЯ ФЕНОМЕНА «ОДИНОЧЕСТВА В ПОЖИЛОМ ВОЗРАСТЕ» В СОЦИОГЕРОНТОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье автор высказывает свои взгляды на феномен одиночества — одну из актуальных и глобализирующихся социальных проблем современности — опираясь на существующие теории представителей классической социологии.

Ключевые слова: «эпидемия одиночества», социальная классификация одиночества, теория одиночества в социogerонтологических взглядах, теория «социального отступления».

Eryigitova Lobar Qodirovna

Head of Department, CAMU International Medical University,
doctor of Philosophy in Sociology (PhD)
Email: e-lobarxoneryigitova@gmail.com
Phone: +998 90 523 70 13

ANALYSIS OF SELECTED THEORIES ON THE STUDY OF THE “LONELINESS IN OLD AGE” PHENOMENON IN SOCIOGERONTOLOGY

Abstract. In this article the author expresses his opinion on the phenomenon of loneliness as an important social problem, which today is becoming increasingly global, based on existing theories of classical sociologists.

Key words: “loneliness epidemic”, social classification of loneliness, theory of loneliness in sociogerontological views, theory of “social care”.

Kirish.

Bugungi kunda dunyo aholisi tarkibida keksa yoshdagilar ulushining o'sib borishi bilan bog'liq muammolar umumbashariy miqyosga chiqib ulgurdi. Keksayish jarayoni dunyo bo'yicha o'sib borishi barcha mamlakatlarda ham umumbariy ahamiyatga molik yangi vazifa kun tartibiga qo'ymoqda [1]. Keksalar ichida yolg'izlanishning ijtimoiy jihatlarini bu yo'nalishdagi alohida o'rganilayotgan dolzarb tadqiqotlardan biri bo'lib qoldi. Bugun “yolg'izlik epidemiyasi” kuchayib bormoqda. Bu muhim demografik jarayon Yevropa ittifoqi doirasidagi davlatlarda ayniqsa yildan yilga sezilarli darajada o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Masalan dunyoning mazkur mintaqasidagi mamlakatlarda har 10 ta insondan bittasi yolg'iz ekanligi aniqlangan. Eng ko'p yolg'iz insonlar Irlandiyada yashaydi, bu aholining umumiy tarkibida 20 foizni tashkil etadi.

Hozirda yolg'izlanish fenomenini o'rganuvchi fan sifatida sotsiogerontologiyaga ijtimoiy fanlar doirasida va boshqa yo'nalishlarda qiziqish kuchayib bormoqda. Sotsiogerontologiya – keksalar hayotini ijtimoiy jihatdan o'rganuvchi fan bo'lib, yolg'izlik muammosi unda muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda yolg'izlikni sotsiogerontologik tahlil qilishning alohida o'ri bor.

Yolg'izlik – bu subyektiv ravishda o'zini jamiyatdan uzoqlashgan holda his etishi bilan bog'liq holatdir. Bu tushuncha psixologiya, sotsiologiya va gerontologiya sohalarida keng o'rganiladi. Yolg'izlikni sotsiogerontologik tahlil qilishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

ijtimoiy aloqalarning pasayishi – yolg'izlik ko'pincha qarilik yoshiga yetishgan insonlarda ijtimoiy aloqalarning kamayishi bilan bog'liqdir.

oilaviy va do'stona munosabatlar – qariyalarning yolg'izligi ko'pincha farzandlari va yaqinlari bilan aloqalarining uzilishi yoki zaiflashishi natijasida yuzaga keladi.

iqtisodiy va ijtimoiy omillar – moddiy qiyinchiliklar, ijtimoiy yordam yetishmovchiligi yolg'izlik darajasini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili.

Yolg'izlik fenomeni falsafiy-sotsiologik nuqtai nazardan Bugungi kunga qadar ko'plab tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Funksionalistik yondashuv nazariyasida E.Kamins va U.Genri o'z qarashlarini struktura-funksionalizmga asoslab ishlab chiqqanlar. Bu sotsiologiya yo'nalishiga ko'ra, har bir ijtimoiy tartib-qoida jamiyatning barqarorligi va muvozanatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, keksa insonning ijtimoiy rollardan chekinishi jamiyatning yangi avlodlarga joy berishini ta'minlaydi [3].

Disengagement nazariyasiga qator tanqidlar yo'naltirilgan. Ulardan faollik nazariyasi tarafdorlari fikricha, qarilikda faol ijtimoiy hayot inson salomatligi va baxtliligini ta'minlaydi, keksalar chekinishga emas, balki faol hayot kechirishga intiladi. Na bir tanqidiy nazariya funksionalistik yondashuv tarafdorlarini insonlararo farqlarni e'tiborga olmaslikda ayblashadi. Ularning fikricha, har bir insonning individual xarakteri, yashash tarzi va istaklari bor. Hamma ham "chekinish"ni tabiiy jarayon sifatida qabul qilmaydi. Tanqidiy qarashlarda yolg'iz keksalikda madaniyatlararo farqlar tasnifi haqidagi qarashlar ham mavjud bo'lib, bunda ayrim madaniyatlarda qariyalarga hurmat balandligi va ularning ijtimoiy roli yuqori ekanligini asoslashga e'tibor qaratiladi. Mahalliy tadqiqotchilardan biri Sh. Sodiqovanning "Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda keksalarning

o‘rni” nomli tadqiqot ishida keksalarning jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy roli, ularning yoshlarga namunaviy hayot tajribasi orqali milliy g‘oya, Vatanga sadoqat, tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat kabi qadriyatlarni singdirishdagi o‘rni yoritiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi.

Sotsiogerontologiyada “Yolg‘iz keksalik” fenomenini o‘rganishning ayrim nazariyalari tahliliba bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Yolg‘izlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlariga sotsiogerontologik jihatdan yondashsak, yolg‘izlikning bir necha oqibatlari mavjud:

ruhiy salomatlikka ta’siri – depressiya, stress va xavotirlik darajasining oshishi.

jismoniy salomatlikka ta’siri – yurak-qon tomir kasalliklari, immunitet tizimining zaiflashishi.

jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyaning pasayishi – yolg‘iz kishilar ijtimoiy jarayonlardan chetda qolishga moyil bo‘lishi [4].

Sotsiogerontologiyada yolg‘izlikni insonning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy va jismoniy holatiga ham ta’sir etuvchi jiddiy muammo sifatida o‘rganish mumkin. Bu muammoni kamaytirish uchun ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va keksalarga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Yolg‘iz keksalik (yolg‘iz qarilik) masalasi hozirga qadar sotsiologiyada bir necha ilmiy maktablar va nazariy yondashuvlar tomonidan o‘rganilgan. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

Funksionalizm (Strukturalizm) yondoshuvi tarafdorlari, ya’ni, funksionalistlar yolg‘iz qarilikni jamiyatdagi umumiy tartib va tizimning bir qismi sifatida ko‘radi. Bu nazariyaning asosiy qarashlari: keksa odamlarning ijtimoiy hayotdan chekinishi - disengagement nazariyasi jamiyat uchun normal jarayondir. Yolg‘iz qariyalarning ijtimoiy faollikdan voz kechishi jamiyatning barqarorligi va yangi avlodlarning jamiyatga kirib kelishini ta’minlaydi. Jamiyatning oila,

mahalla, jamoat tashkilotlari kabi turli institutlari qariyalarning yolg'izlik darajasini kamaytirishda yordam berishi kerak. Bu jarayon nafaqat jamiyatning qariyalarni "chetlashtirishi", balki qariyalarning o'zi ham ijtimoiy aloqalarni sekinlik bilan kamaytirishga intiluvchi ongli va tabiiy hohishga ega bo'lishi bilan kechadi. Mazkur jarayon ijtimoiy rollardan voz kechish — shaxsiy erkinlik va ichki xotirjamlikka olib kelishi kuzatilgan.

Yana bu holatda quyidagi asosiy komponentlar ishtirok etishi kuzatilgan. Ijtimoiy chekinishda (Disengagement) - insonlar turli ijtimoiy rollar (ota-ona, ishchi, jamoa a'zosi)dan asta-sekin chetlashadi [3]. Bu jarayon shaxsiy hayotni qayta baholash va ichki xotirjamlikka erishish bilan bog'liq. U yana o'zaro kutilmalarning o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin, ya'ni, jamiyat ham, qariyaning o'zi ham bir-biriga bo'lgan ijtimoiy intilishlarini kamaytiradi. Bu esa qarama-qarshiliklarsiz, "tinch" kechuvchi qarilikka imkon yaratadi. Shaxsiy adaptatsiya vaziyati ham mavjud, bunda kishilar o'z jismoniy va psixologik holatlariga mos ravishda yangi hayot tarziga ko'nikishga harakat qilishadi [5].

Tanqidiy nazariyaning hozirgi kundagi ahamiyati shundan iboratki, garchi bu nazariya aynan shu shaklda keng qo'llanmasada, u gerontologiyadagi dastlabki nazariyaviy yondashuvlardan biri sifatida muhim hisoblanadi. Uning asosida keyingi nazariyalar – Faollik nazariyasi, Kontinuitet nazariyasi, sotsioemosional selektivlik nazariyasi kabi modellar rivojlangan. Fikrimizcha, bizning disengagement nazariyasini boshqa asosiy gerontologik nazariyalar bilan qiyoslab, ularning o'zaro farqlari va umumiyliklarini ko'rib chiqsak, bu bizning tadqiq etilayotgan mavzumizga ilmiy yondoshuvimizni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Qolaversa, bunday qiyosiy tahlil sotsiogerontologiyaning boshqa asosiy nazariyalari – faollik, davomiylik, sotsioemosional selektivlik, va modernizatsiya nazariyalarining disengagement nazariyaga munosabati, asosiy g'oyalari va mazkur nazariyaning kamchiliklari haqidagi tushunchalarimizni kengaytiradi [4].

Faollik nazariyasi 1960-yillarda disengagement nazariyasiga javob sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, qariyalar jamiyatdagi ishtirokini saqlashi orqali o'zini kerakli, baxtli va sog'lom his qiladi degan g'oyani ilgari suradi.

Davomiylik nazariyasida esa inson o'z shaxsiyati va hayot uslubini har qanday sharoitda saqlashga intilishi haqidagi g'oyani asoslashga harakat qiladi. Bu nazariya tarafdorlari yolg'iz keksalar qarilikda ham yangi sharoitlarga moslashishda o'z "menlik"ni saqlash muhimligini ta'kidlaydilar. **Sotsioemosional selektivlik nazariyasi** tarafdorlari qariyalar sa'y-harakatlarini ko'proq mazmunli va samimiy aloqalarga qaratadilar. Ular uchun sifat, mazmun va ma'no ustuvor ahamiyatga ega.

Modernizatsiya nazariyasida insonlar qarish davrida ham o'zining yoshlikdagi hayot uslubini saqlashga intilishi haqidagi g'oyalarga asoslanadi, mazkur g'oyaning afzal tomoni shundaki, bu nazariya insonlar qarish davrida ham o'zining yoshlikdagi hayot uslubini saqlashga intilishiga muhim omil sifatida qaraydilar.

Disengagement nazariyasi gerontologiyadagi eng birinchi ishlab chiqilgan va ta'sirli nazariyalardan biri bo'lib, uning asosida keyinchalik bir qancha kengroq va mulohazali nazariyalar rivojlangan. U ijtimoiy chetlanishni tabiiy va ongli jarayon deb bilsa, keyingi nazariyalar bunga tanqidiy va individual yondashuvlarni ilgari suradi [3].

Nazarimizda qarilik davrida ijtimoiy chetlanishning nazariy asoslari va O'zbekiston jamiyatidagi qiyosiy tahlilini mamlakatimizdagi keksalar hayotiga qanday mos kelishini o'rganish va bu jarayondagi SOTSIOmadaniy faktorlar, oilaviy munosabatlar va jamoaviy qadriyatlar kontekstida nazariyalar bilan qiyoslab chiqilishi tadqiqot maqsadini yanada kengroq ochib beradi. Bunda biz qarilik – inson hayotining tabiiy bosqichi, uning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari turli madaniyatlarda turlicha namoyon bo'lishini nazarda tutgan holda yondashuvni muhim hisoblaymiz. Gerontologiya sohasida keksalarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga oid nazariyalar ichida eng mashhuri-**disengagement nazariyasi** bo'lib, u keksalarning jamiyatdan chetlanishini tabiiy va ijobiy jarayon sifatida talqin qilishni mamlakatimiz misolida ham tahlil qilishga urinib ko'rdik. Xususan, o'zbek jamiyatida **disengagement nazariyasiga** inson qarigani sari jamiyatdan va ijtimoiy rollardan ongli ravishda chekinadi, bu jarayon ichki

xotirjamlik va hayotni qayta baholash uchun muhim deb qaraladi. **Faollik nazariyasida** qariyalar ijtimoiy va jismoniy faolligini saqlasa, o'zini baxtli va sog'lom his etishi hamda faollik insonning ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlaydi deb hisoblashlarini kuzatish mumkin.

Davomiylik nazariyasi bizning sharoitimizda boshqa mintaqalardagilardan ko'ra farqli ekanligini kuzatish mumkin. Bizdagi aksariyat insonlar qariganida ham o'ziga xos odat va hayot uslubini saqlashga intiladi. Davomiylik nazariyasida esa shaxsiy tajriba va individuallikka e'tibor qaratiladi. **Sotsioemosional selektivlik nazariyasi bo'yicha esa** keksalarimiz emosional mazmunli munosabatlarga ko'proq ahamiyat qaratadilar, shuningdek o'z vaqtlarini ma'naviy boylik keltiruvchi aloqalarga sarflashga intiladilar [1].

O'zbekiston sharoitida keksalarimizning oila qadriyatlarida alohida o'rinlari bor. Bizda keksalar asosan ko'p avlodli oila tarkibida yashaydi. Mazkur holatda faollik va tajribadan foydalanish tendensiyasi yuqoriligi faollik nazariyasiga mos. Keksalarimizni o'z ijtimoiy rollarini mahalla, jamoa va diniy marosimlarda ishtirok etishda ko'proq namoyon qiladi. Keksalarimizga "tafakkur egasi", "hayotiy tajribasi boy inson", "nasihatgo'y", "maslahatchi" kabi ijobiy ijtimoiy rollardagi shaxs sifatida munosabat bildirish, e'tirof etish davomiylik nazariyasi ko'rinishlariga mos keladi. Keksalarimiz bu ijtimoiy rollarini jamiyatimiz barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shish, yoshlar tarbiyasi, oila farovonligini oshirish va ma'naviy muhitini mustahkamlash yo'lida namoyon qilishni o'zlariga burch deb biladilar. Ammo so'nggi yillarda bizda ham ijtimoiy chekinish holatlari kuzatilmoqda. Yolg'iz keksa ayollar, erkaklar soni ko'paymoqda, shaharlarda bu ko'rsatkich nisbatan yuqori. Hozirgi sharoitda pensiya sog'liqni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni har doim ham to'liq qoplamayotganligi yolg'iz keksalarimizning faollik imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda [2].

Bizning jamiyatimizdagi oilaviy muhitda emosional qo'llab – quvvatlash mavjud. Jamiyatimizdagi sovet davridan keyingi o'n yilliklarda yoshlar migratsiyasi natijasida ba'zi qariyalarni yolg'izlikni his qilishini kuchaytirmoqda. Bu borada mamlakatimizda keksalarni, xususan yolg'iz keksalarni ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash, ularga munosib sharoitlar yaratish borasida tizimli ravishda davlat siyosati darajasida faoliyat olib borilmoqda. Dunyo miqyosida globallashib borayotgan yolg'iz keksayishning ayrim jahatlari bizdagi yashash tarzimiz va ijtimoiy munosabatlarga kirib bormoqda. Bunday vaziyatni sotsioemosional selektivlik nazariyasiga mos tendensiyalarning biri sifatida kuzatish mumkin.

Biz yuqorida tahlil qilgan nazariyalar borasida o'z xulosamizni quyidagicha bildirishni o'rinli deb hisoblaymiz: birinchidan, mazkur nazariyalarning bizning sharoitimizga qay darajada mosligiga to'xtalsak, O'zbekiston jamiyatida disengagement nazariyasi to'liq amal qilmaydi. Aksincha, faollik va davomiylik nazariyalari ko'proq mos keladi; ikkinchidan, olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni kuchaytirish zarur, pensiya yoshidagi shaxslar uchun qayta kasbiy integratsiya dasturlari yaratish, mahallalarda faol keksalar klublarini ochish zarur; uchinchidan, keksalarni emosional qo'llab-quvvatlab yolg'iz keksalar uchun psixologik va ijtimoiy yordam markazlarini tashkil etish, bolalar va keksalar o'rtasida muloqotni rag'batlantiruvchi loyihalarni joriy etish zarur.

Adabiyotlar

1. Sodiqova Sh. Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 5-11.
2. Sodiqova Sh.M. Sotsiologiyaning dolzarb masalalari. – Toshkent: Renessans, 2018. – 106 b.
3. Гидденс Энтони. Социология /При участии К. Бердсолл: Пер. с английского. Ред. 2-е, полностью перераб. и добавить. – Москва: Редакция УРСС, 2005. – 632 с.
4. Захарова Д.А. Теоретические подходы к пониманию феномена одиночества.- как социально педагогическое проблемы у детей-сирот. – Москва: Академия, 2014. – 157 с.
5. Платон. Государство. Законы. Политика./пер. Предисл.Е.И.Темнова. – Москва: МЫСЛЬ, 1998. – 468 с.
6. Попова С.А. Одиночества - как социальная феномен. – Москва: Прогресс, 2018. – 312 с.

